

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**BEGIMKULOVA SHAXNOZA AXMEDOVNA**

**AFG‘ON-AMERIKA ADIBALARI IJODIDA  
MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLAR TALQINI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Begimkulova Shaxnoza Axmedovna**

Afg‘on-amerika adibalari ijodida milliy va umuminsoniy tamoyillar talqini ..... 3

**Бегимкулова Шахноза Ахмедовна**

Толкование национального и общечеловеческого принципов в произведениях  
афгано-американских писателей ..... 23

**Begimkulova Shakhnoza Axmedovna**

Interpretation of national and universal principles in the work of Afghan-American  
writers ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**BEGIMKULOVA SHAXNOZA AXMEDOVNA**

**AFG‘ON-AMERIKA ADIBALARI IJODIDA  
MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLAR TALQINI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4826 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Iqtisodiyot va pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adchti.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ruzmatova Dilnoza Ramatjanovna**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Vositov Valijon Abduvaxobovich**

filologiya fanlari doktori, professor

**To'rayeva Bahor Bahriddinova**

filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shokhko'chasi 5-uy. Tel.: (74)223-42-76; faks: (74)223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shokhko'chasi, 5-uy. Tel.: (74)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.A.Rustamov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**A.Dj.Atboyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**G'M.Hoshimov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzabligi va zarurati.** XX-XXI asr jahon adabiyotshunosligida multikulturalizm tendensiyasi, ya'ni boshqa mamlakat adabiy muhiti vakili sifatida ijod etgan bir necha madaniyatga tegishli yozuvchilarning badiiy olamini yangicha rakurs asosida tadqiq etish, millatlar va an'analardagi mushtaraklik hamda o'ziga xoslikni ularning ijodi misolida tasnif qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Afg'on-amerika multikulturalizm adabiyoti vakillarining ijod namunalarida ikki millat afg'on millatining Amerikadagi hayot tarzi, qahramonlarning ichki ruhiy olamini multikulturalizm asosida ochib berish zamonaviy adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Jahon adabiyotida nisbatan yangi tendensiya bo'lgan multikulturalizm romanlarning o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy va adabiy-estetik ahamiyatini badiiy mezonlarning tegishli maromlari va biografik, sotsiologik metodlar asosida o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, ular haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar va masalalarni yaxlit ilmiy-nazariy tadqiq etish o'ziga xos yondashuvni taqozo etadi.

Jahon adabiyotini o'rganishda madaniyatlararo va lingvistik ziddiyatlar davrida shakllangan afg'on-amerika adabiyotining badiiy tafakkuri, turli makon va zamonlarning mutanosibligi asta-sekin tarixiy-madaniy, tarixiy va biografik usullarni keltirib chiqargan ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilish zamonaviy adabiyotning muhim vazifasidir. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida afg'on-amerika adabiyoti shakllangan bo'lib, turli makon va zamonda sodir bo'lgan voqealar ifodasi, syujet va kompozitsiyasi o'xshashligi, badiiy asar g'oyasining bir xilligi, ijodkorning inson, jamiyat va borliq bilan dialogik munosabatga kirishuvi kabi muammolarni chuqur o'rganib, ilmiy baho berish, xulosalar chiqarish, afg'on-amerika adabiyoti vakillari Saima Vahob, Faruka Gavhariy, Maryam Quadrat Asil va Nilufar Paziralarning ijodi haqida butun jahon ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida multikulturalizm tendensiyasi, afg'on-amerika adabiyoti, qahramonlarning begona yurtda o'zligini anglash tahlili kabi mavzular doirasida hanuzgacha maxsus tadqiq etilmagan. Zero, Sharq va G'arb adabiy an'analarning badiiy sintezi masalasi, multikulturalizm adabiyotiga tegishlilik kabi adabiy-estetik hodisalarni Saima Vahob, Faruka Gavhariy, Maryam Quadrat Asil va Nilufar Paziralarning ijodi misolida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslik ilmiga kiritilayotgan yangiliklar, vujudga kelayotgan yangi oqimlar va asarlarni o'rganish, tahlil qilish har jihatdan muhimdir.

Mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuvi natijasida so'nggi yillarda ilmiy va adabiy tafakkur yangilanib, ilm-fan hamda ta'lim rivojiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Zero, Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz mutafakkir zotlarning: "Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi", degan hikmatli so'zlarini o'zimiz uchun dastur deb bilamiz. Ma'lumki, biz bir yil avval taraqqiyotimizning 5 ta asosiy yo'nalishini belgilab olgan edik. Unda ta'lim sohasini rivojlantirish birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Men doimo ta'lim, ta'lim,

muallim, muallim, deb ta'kidlashim bejiz emas. Chunki ta'limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta'limdir"<sup>1</sup>. Adabiyotshunoslikda qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tamoyillar, madaniy tegishlilik kabi mavzular tasviri ahamiyatga molik masalalardan hisoblanib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 28-noyabrdagi "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining 2021-yil 18-yanvardagi "Ta'lim sohasini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha parlament va deputatlar nazoratini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Adabiyotshunoslikda multikulturalizm tendensiyasi va uning turli ko'rinishlari, yozuvchi ijodi misolida individuallik va qiyosiy – tipologik umumlashma tahlili singari ilmiy-nazariy muammolar g'arb adabiyotshunos olimlari: Ketii Ist<sup>2</sup>, Atkinson L. va Osvald R.<sup>3</sup>, Jasek Midla va Poks M.,<sup>4</sup> J.Makra va M.Edvon<sup>5</sup>lar rus adabiyotshunoslardan: S.Tolkachyov.<sup>6</sup>, O.Karasik.<sup>7</sup>, I.Kozlik<sup>8</sup>lar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Multikulturalizm adabiy istiloh sifatida rus adabiyotshunosligida

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6637> [nutq sanasi: 31.08.2023].

<sup>2</sup> Kathy East, Rebecca Thomas. Across Cultures. A Guide to multicultural literature for children.- Westport: Conn.London,2007. – 324 p.

<sup>3</sup> Lynn Atkinson Smolen, Ruth A. Oswald. Multicultural literature and response. -Oxford, England: Libraries unlimited,2011. – 452 p.

<sup>4</sup> Jacek Mydla, Małgorzata Poks. Multiculturalism, Multilingualism and the Self: Literature and Culture Studies.- Poland: Springer International Publishing, 2017. –198 p.

<sup>5</sup> John McRae, Malachi Edwin Vethamani. Now read on a course in multicultural reading.- London and New York: Routledge, 1999. – 160 p.

<sup>6</sup> Толкачев С. П. Мультикультурная литература: новые горизонты XXI Века: монография. С.П. Толкачев. – Москва : КНОРУС, 2021. – 326 с.

<sup>7</sup> Карасик О.Б. К вопросу о мультикультурализме в современной литературе США-Вестник Пятигорского государственного лингвистического университета: Пятигорский государственный университет, №4, 2009. – С 218-221.

<sup>8</sup> Козлик И. В. Мультикультурализм и методологические проблемы литературоведения: Вестник Томского Государственного Университета. –Филология: №2. 2009. – С 41-58.

1980-yillardan boshlab M. Tlostanovning ilmiy risolasi<sup>9</sup> orqali tilga olina boshlandi. AQSh milliy adabiyotidagi ozchilikdan tashkil topgan etnik yozuvchilarning ijodini o'rganishda M. Tlostanovning monografiyasi ijobiy qabul qilindi. Shu asnoda birin-ketin har bir etnik guruhlarni o'rganish jadallik bilan o'sdi. Osiyo-amerika multikulturalizm adabiyotiga bo'lgan qiziqishlar tufayli ularning ijodini tahlil qilishga bag'ishlangan antologiyalar "*Asian American Literature*"<sup>10</sup>, "*Asian-American Writers*"<sup>11</sup>, "*The Greenwood encyclopedia of Asian American literature*"<sup>12</sup> yaratildi. Xitoy, Yaponiya, Koreya, Afg'oniston va Janubiy Osiyo yozuvchilarining<sup>13</sup> Amerika adabiyotidagi maqomini baholash borasida olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida ularning asarlarida G'arbga hos fikrlash bilan bir vaqtning o'zida milliylikni saqlab qolish ustunlik qilishini kuzatish mumkin. E.Karasik<sup>14</sup> osiyo-amerika adabiyotida o'zini anglash muammosiga bag'ishlab bir nechta ilmiy risolalar yozdi va doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Uning fikricha, mazkur ijodkorlar o'zi tug'ilib o'sgan yurtidan olisda istiqomat qilsada, doimo o'zligini, o'z "men"ini topishga intilishgan. E.Levchenko<sup>15</sup> esa xitoy-amerika, meksiko-amerika adibalarning ijodidagi o'zlikni anglash mavzusini tahlil qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida A.M.Mannanovning ko'plab ilmiy ishlari, risolalari va kitoblari afg'on adabiyotini o'rganishga bag'ishlangan. Ulardan "У истоков классической афганской литературы"<sup>16</sup>, "Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti"<sup>17</sup> nomli monografiyasi o'rganilib chiqildi. D.R.Ruzmatova "*Holid Xusayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi*"<sup>18</sup> nomli tadqiqotida afg'on-amerika diaspora adabiyotining uchta asosiy xususiyatini: tillar va madaniyatlararo to'qnashuv, biografik metod tamoyillari hamda makon va zamon mutanosibligini ilmiy nazariyalarga tayangan holda isbotlagan. Shuningdek, Holid Xusayniy romanlarini tarixiy perspektiva nuqtai nazaridan bolalik, ayollik va oila badiiy perspektivalariga ajratib, Afg'onistonning tolibonlar hukumatidan oldingi, tolibonlar davri va undan so'nggi davrlardagi real tasvirini yozuvchi asarlaridagi badiiy inikosiga tayanib tahlil qilgan.

Afg'on-amerika adabiyoti va multikulturalizm konteksti bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, adabiyotshunoslikda afg'on-amerika adibalari ijodi

<sup>9</sup> Тлостанова М.В. Проблема мультикультурализма и литература США конца XX века. – Москва: ИМЛИ РАН, «Наследие», 2000. – 400 с.

<sup>10</sup> Bella Adams. *Asian American Literature*.-Edinburgh:Edinburgh University Press,2008. –249 p.

<sup>11</sup> Harold Bloom. *Asian-american writers*. – Yale University: Bloom's literary criticism, 2009. –219 p.

<sup>12</sup> Guiyou Huang. *The Greenwood encyclopedia of Asian American literature*.-London: Greenwood Press, 2009. –1197 p.

<sup>13</sup> Said Hyder Akbar. *Come Back to Afghanistan: A California Teenager's Story*-.New York and London: Bloomsbury Publishing, 2005. – 320 p. Mir Tamim Ansary. *Road Trips, Becoming an American in the Vapor Trail of the Sixties*. – USA: Kajakai Press, 2019. – 280 p. Toshio Mori, Hisaye Yamamoto. *Chauvinist and Other Stories: Asian American Studies Center, UCLA*. –142 p. Amy Tan. *The Joy Luck Club*. –United States: G.P.Putnam's Sons,1989. – 288 p.

<sup>14</sup> Карасик, О.Б. К вопросу о мультикультурализме в современной литературе США: Вестник Пятигорского государственного лингвистического университета. – 2009. № 4. – С 218-221.

<sup>15</sup> Е.В.Левченко. Проблема самоопределения в женской прозе этнических меньшинств США 1980-2000-х гг. канд. Филолог.наук...дис.автореф. –Санкт-Петербург,2008. –24 с.

<sup>16</sup> А.М.Маннанов. У истоков классической афганской литературы. –Ташкент: «Инновационное развитие», 2023. –397 с.

<sup>17</sup> М.А.Маннанов. Afg'on xalq og'zaki ijodiyoti.-Toshkent:Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2021. – 210 b.

<sup>18</sup> Ruzmatova D.R. *Holid Xusayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi*:Filol.fan.fal. dok. –146 b.

va ularning asarlaridagi milliy va umuminsoniy tamoyillar yaxlit tadqiqot doirasida monografik tadbiq etilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Iqtisodiyot va pedagogika universitetida Angliya va Amerika adabiyoti tarixi va dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari ustuvor ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** afg'on-amerika multikulturalizm adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hamda milliy va umuminsoniy tamoyillarni Faruka Gavhariy, Nilufar Pazira, Maryam Quadrat Asil va Saima Vahob asarlari misolida ilmiy-tahliliy va nazariy umumlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Multikulturalizm va uning adabiy-badiiy shakllanish xususiyatlarini va adabiyotshunoslik diskursida multikulturani intermatn, tarjima, inter-madaniyat bilan birgalikda adabiy tahlilga tortish faktorlarini belgilash;

Afg'on-amerika adabiyoti va unda ayol yozuvchilarning o'rni va vujudga kelish sharoitlari va tadirijiy taraqqiyot bosqichlarini ilmiy-tasnifiy yo'sinda asoslash, badiiy asar kompozitsiyasi orqali yozuvchi g'oyasini tahlil qilish;

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining jahon adabiyoti tarixida muayyan o'rni va oilaviy qadriyat tushunchasini afg'on-amerika adibalarining asarlaridagi ajralmas tematika sifatida tahlil qilish;

Ayollarning ijtimoiy hayotda o'zligini, qadriyatlarini va tarixiy kelib chiqishini din orqali izlashni, zamonaviy rakursda dunyoviy ta'limni egallashda qahramonlar taqdiri aks etgan jihatlarni tekshirish;

Yozuvchi shaxsiyati va ma'naviy dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarining uslubiyatda aks etish yo'llarini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Faruka Gavhariyning *“Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey”* (“Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi”), Maryam Quadrat Asilning *“Torn between Two Cultures: an Afghan-American Woman Speaks out”* (“Ikki madaniyatga mansublik: Afg'on-amerikalik ayol haqiqati”), Nilufar Paziraning *“A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan”* (“Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab”) Saima Vahobning *“In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate”* (“Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari”) asarlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Faruka Gavhariy, Maryam Quadrat Asil, Nilufar Pazira va Saima Vahob asarlarining o'ziga xosligi hamda afg'on – amerika multikulturalizm adabiyotining nazariy xususiyatlari tadqiqidan tashkil topgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada biografik, sotsiologik, tarixiy-madaniy va qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

afg'on-amerika adabiyoti adib va adibalari o'zaro tarixiy-qiyosiy metodda taqqoslanganda ayol yozuvchilar ijodida mohiyatga yondashuvda erkak yozuvchilardan farqli personajlarning ichki monologlari, kechinmalari, hissiyotlari va voqealarga munosabatlari muallif rivoyachi tilidan keltirilishi badiiy-konseptual yaxlitlikda ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;



Faruka Gavhariy, Maryam Qudrat Asil, Nilufar Pazira va Saima Vahob romanlarida muallif biografiyasi, badiiy mahorat va yozuvchi uslubi muammolari badiiylik mezonlari asosida dalillangan;

afg'on-amerika adabiyotidagi milliy va umuminsoniy g'oyalar umumiyliigi va differentsiatsiyasi nuqtai nazaridan multikulturalizm adabiyoti qonuniyatlarining izchil tadqiqi natijasida mazkur adabiyoting muhim xususiyatlari ochib berilgan;

afg'on-amerika adibalari ijodida milliy o'zlikni ta'kidlash masalasida inglizcha matndagi arab, turk, fors, doriy tillariga mansub realiyalarning maishiy, etnografik, ijtimoiy va naturalistik turlari aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Multikulturalizm adabiyotining muhim xususiyatlarini tahlil va tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy tushunchalar berishi, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tili o'rganilayotgan mamlakat zamonaviy adabiyoti kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Afg'on-amerika multikulturalizm adabiyotida adibalarning ijodiy-individual uslubi hamda epik mahorati xususiyatlarini tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

Afg'on-amerika adibalari asarlaridagi patriarxal ustunlik, diniy va dunyoviy ta'lim mushtarakligi, vatanni qo'msash kabi adabiy va badiiy mavzular, shuningdek realiyalarning multikultura adabiyotidagi ahamiyati hamda yozuvchi biografiyasining asarda aks etishi masalasi romanlardan olingan misollar orqali batafsil yoritib berilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** masalaning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning biografik, psixologik, sotsiologik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikrlar, tavsiyalar va xulosalarning respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi maxsus jurnallarda chop etilgan maqola va tezislari orqali amaliyotga joriy etilganligi, qo'lga kiritilgan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ayni ilmiy-nazariy yo'nalishdagi ilmiy asarlar yozishda, multikulturalizm adabiyotiga xos belgi-xususiyatlarni, uning tadrijiy taraqqiyotini qayta tahlil etishda, ularda yozuvchi uslubi, makon va zamonning tasviriy usullari, asarlarda tarixiy va badiiy haqiqatning ifodalanishi singari masalalarga ilmiy xulosalarni yaratishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy umumlashmalardan, shuningdek, tadqiqot yuzasidan e'lon qilingan adabiy-ilmiy manbalardan "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti", "Adabiyot nazariyasi", "Jahon adabiyoti tarixi", "Amerika adabiyoti" singari adabiyotga va adabiy jarayonlarga bag'ishlangan maxsus kurs va seminarlar o'tishga, darslik va qo'llanmalar yaratishga, adabiyotshunoslikka oid lug'atlar, tavsiyanomalar va yo'riqnomalar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dunyo adabiyotshunosligida madaniyatlararo va tillar to'qnashuvi, turli makon va zamon mutanosibligi zamirida

shakllanayotgan afg'on-amerika adabiyotining badiiy tafakkur bosqichma-bosqich vujudga keltirgan ijtimoiy-psixologik omillarni tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, biografik metod tamoyillar asosida tahlil etish zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim vazifasi ekanligi keltirilgan hamda badiiy matnda har xil turdagi realiyalar madaniyat elchisi sifatida berilganligi haqidagi nazariy qarashlari asosida:

afg'on-amerika adabiyotining badiiy tafakkuri bosqichma-bosqich vujudga keltirgan ijtimoiy-psixologik omillarni tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, biografik metod tamoyillar asosida tahlil etish zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim vazifasi ekanligi keltirilgan hamda badiiy matnda har xil turdagi realiyalar madaniyat elchisi sifatida berilganligi haqidagi nazariy qarashlardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-09081165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusida bajarilgan fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 22-apreldagi 178-sonli ma'lumotnomasi). Natijada tahlilga tortilgan asarlar ingliz tilida bo'lsada, afg'on, doriy va arab so'zlarining qo'llanilishi multikulturalizm adabiyotining nazariy tamoyili ekanligi, til va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liqligi afg'onlarga xos milliy madaniyatning shakllantirishi, sharqona urf-odatlar keltirilishi bilan bog'liq ilmiy-nazariy ma'lumotlar mukammallashtirilgan;

afg'on-amerika adibalarining asarlarida multikulturalizm an'analari asosida tarix haqiqatini badiiyat hosilasiga aylantirish, yozuvchilarning obrazli tafakkuri asosida Afg'onistondagi ijtimoiy hayot tarzining haqqoniy ifodasi adabiy-estetik kasb etilishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar tahlili asosida O'zbekiston Davlat jaxon tillari universiteti "Lingvistika va ingliz adabiyoti" kafedrasida tomonidan 2020-2022 yillarda "Lingvistika va ingliz adabiyoti" kafedrasida Britaniya Kengashi (British Council) ko'magida amalga oshirilgan "English as a school subject" (1683580) nomli xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida samarali foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 6 maydagi 01/1656-sonli ma'lumotnomasi). Natijada afg'on-amerika adibalari ijodidagi o'ziga xoslikni tarjima qilingan afg'on adabiyoti asarlaridan farqli ravishda qiyosiy-tipologik tahlil etish imkoniyatini berdi;

tillar va madaniyatlararo to'qnashuv, biografik metod tamoyillari, zamon va makon mutanosibligi va multikulturalizm adabiyotida millatlar va an'analardagi mushtaraklik hamda o'ziga xoslikni belgilaydi hamda nazariy xulosalardan foydalanilgan holda badiiy asar tarjimasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda Ozbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo'limida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi 2024-yil 13-sentyabrdagi 01-03/813-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Saima Vahob, Maryam Quadrat Asil, Faruka Gavhariy va Nilufar Pazira asarlarida shakliy ixchamlik, falsafiy mushohadaning teranligi, mantiqiy izchillik kabi nazariy qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya va anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tasvsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (shulardan 1 tasi xorijiy jurnalda) nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 140 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va metodlari belgilangan, dissertatsiyaning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi aniqlangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ularning nazariy va amaliy ahamiyati dalillangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Afg'on-amerika adabiyotida adibalar ijodining o'ziga xos xususiyatlari: shaxs, jamiyat va qadriyat”** deb nomlangan hamda ikki fasldan iborat. XX asrning boshlaridanoq multikulturalizm tushunchasining paydo bo'lishi kuzatilib, oxirgi o'n yillikda butun dunyo hamjamiyati qayta “uyg'onish va xulosa qilish” istilohlarini ko'p bora takrorlayapti. Vaziyat shuni taqozo qilgan sari ya'ni global darajada “ko'ptarkiblilik”, “multikulturalizm”, “multikultur jamiyat”, “multikulturali” kabi bir qator tushunchalar paydo bo'ldi. Bugungi multikulturali jamiyat, ilgari “multi-millat”, “multi-etnik”, “multi-diniy”, “multi-irq” deb atalib kelingan. “Multikulturalizm” termini XX asrning 60 yillarida Kanadada ilk bor muomalaga kiritilgan bo'lsada, tushuncha mohiyatini amaliyotda keng qo'llovchi AQSHda adabiyotshunoslik ilmida o'tgan asrning 70 yillaridan boshlab keng jamoatchilik tomonidan qo'llanila boshlandi. Multikulturalizmning maqsadi madaniy xilma-xillik, etnik tenglik va huquqlarni o'z ichiga oladi. G'arb adabiy tanqidchisi Emmanuel S. Nelson ta'kidlashicha, dunyo turli madaniyatlardan iborat va ularning har biri insoniyat sivilizatsiyasiga hissa qo'shganligi sababli madaniy xilma-xillik va kundalik turmush tarzi o'rtasidagi farqlarni hurmat qilishni talab etadi. Bu o'zaro bir-birini tushunib yashashga intilish muhimligini ta'kidlaydi<sup>19</sup>. Multikulturalizm ko'plab olimlar tomonidan ilmiy ishlarida va risolalarida qo'llab-quvvatlangan. Birinchidan, multikulturalizm fonida ozchilik o'z madaniyatini saqlab qolishga ishonishadi. Ikkinchidan, multikulturalizm milliy madaniyatning raqobatbardoshligini oshirishi mumkin, chunki madaniyatlar o'zaro bir-biri bilan muloqotda bo'lib, tezda ommalashishi mumkin. Uchinchidan, dunyo multikulturalizmi turli madaniyatlarning bir-biri bilan kelishib olishi uchun bag'rikenglik, ijobiy ijtimoiy muhitni yaratib berishi mumkin. Va nihoyat, multikulturalizm turli millat vakillari orasida murakkab bo'lgan diniy qarama-qarshiliklarni yengillashtirishi mumkin.

Rus adabiyotshunos olimi O.B.Karasik multikulturalizm tushunchasini faqatgina AQSHga tegishli deb hisoblamaydi. Uning fikricha, ushbu tendensiya

---

<sup>19</sup> Guiyuo Huang. Greenwood encyclopedia of Asian American literature. –London: Greenwood Press, 2009. –p.729.

hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab jadallik bilan rivojlanib bormoqda, ammo Amerikada bu o‘ziga xosdir. Birinchidan, mustaqil davlatda koloniyalarning taraqqiy etishi rekord darajada edi. Ikkinchidan, Yer yuzidagi jamiki irqar va etnik guruhlar AQSHda mavjud. Uchinchidan, Amerika madaniyati doimiy ravishda irqiy identifikasiyaga, mintaqaviy va etnik muammolarga munosabati bilan xarakterlanad<sup>20</sup> Boshqa rus adabiyotshunos olimi I.V.Kozlik o‘zining “Мультикультурализм и методологические проблемы литературоведения”<sup>21</sup> nomli ilmiy risolasida quyidagi mulohozani multikulturalizm borasida aytib o‘tadi, ya’ni multikulturalizm yangi adabiyotda tendensiya bo‘lishiga qaramay, turli usullar va turli ko‘rinishlari bilan adabiyotshunoslar nazariga tushdi ayniqsa, madaniyatlararo muloqot, ko‘pmillatli adabiyot hamda undagi madaniy an‘analarning ko‘p ko‘lamligi bilan qiziqayotganlar orasida asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Olim o‘z tadqiqotida zamonaviy adabiyotshunoslik diskursida multikulturalizmni intermatn, tarjima, marginal ko‘rinish, inter-madaniyat bilan birgalikda adabiy tahlilga tortishda quyidagi faktorlarini inobatga olish kerak deb hisoblaydi.

1) insoniyatning zamonavaiy rivojlanish iyerarxiyasida multikulturalizm muammolarning dolzarbligi;

2) multikulturalizm – adabiyotshunoslik tushunchasi emas;

3) multikulturalizm kompleks muammo va u yagona bir fan tizimiga taaluqli deb hisoblash noo‘rin.

I.V.Kozlikning fikricha, bu oqim yozuvchilar ijodini biror-bir aniq milliy adabiyotga yo‘naltirib bo‘lmaydi.

Osiyo-Amerika adabiyotida yana bir muhim xodisa sifatida e’tirof etiluvchi afg‘on-amerika adabiyoti doirasida yozilgan asarlar adabiyotshunoslarning qiziqishlariga sabab bo‘lib kelmoqda. Afg‘onistonliklar 1979-yilda Sobiq Ittifoq qo‘shinlari Afg‘onistonga bostirib kirganidan keyin Qo‘shma Shtatlarga qochqin sifatida kelishgan. Bu Afg‘onlar uchun ommaviy migratsiyaning birinchi hodisasi edi. Qo‘shma Shtatlar Sobiq Ittifoq qo‘shinlariga qarshi kurashayotgan mujohidlarni, millatchilik harakatini rasman qo‘llab-quvvatlaganligi sababli, 1986 yil Afg‘on qochqinlarining Qo‘shma Shtatlarga eng katta ko‘chishi sodir bo‘ldi. Hozirda Amerikada 75 000 ga yaqin Afg‘on-amerikaliklar bor. Raqam o‘shishda davom etmoqda.

Afg‘on-amerika ayol ijodkorlarining yetakchisi Faruka Gavhariyning biografik metodga asoslangan “*Searching for Saleem: An Afghan Woman’s Odyssey*” (“Salimni izlab: Afg‘on ayoli Odisseyasi”) 1996-yilda nashr qilingan bo‘lib, afg‘on ayolining uzun mashaqqatli yo‘lda yolg‘iz kurashchi bo‘lib, qiyinchiliklarga dosh berishi tasvirlanib, dastlabki “Baxtli bolalik” nomli bobidan tashqari barcha o‘rinlarda Salim bilan bog‘liq xotiralar qalamga olingan. Salimni izlash davomida har safar har xil manzillarni tanlar, keyingi jarayon uchun o‘ziga-o‘zi savollar berib, yana o‘zi javob qaytarishi natijasida nimalargadir oydinlik kiritar, ammo barchasi befoyda edi. Asar voqealari erkak dominant bo‘lgan jamiyatda yolg‘iz ayolning

<sup>20</sup> Карасик О.Б. К вопросу о мультикультурализме в современной литературе США . Вестник Пятигорского государственного лингвистического университета. – 2009,- № 4. – 219 с.

<sup>21</sup> Козлик И.В. Мультикультурализм и методологические проблемы литературоведения. Вестник Томского Государственного Университета. Филология №2. 2009. – 44 с.

qo‘lidan hech narsa kelmasligi, o‘z tinchini o‘ylagan do‘stlar va qarindoshlarning ham jimgina o‘zlarini chetga olishlari va yoki yolg‘on va‘dalar berib, umuman qaytib kelmasliklari motivlari asosida qurilgan. Badiiy asarda yozuvchi ifodalagan asosiy fikr, tasvir predmetiga bergan bahosi “asarning g‘oyasi” deb ataladi<sup>22</sup>. Faruka Gavhariyning asaridagi g‘oyasi ham kishilarning psixologiyasi, taqdiri, voqealarning va narsalarning mohiyati ichiga singib ketadiki bevosita kitobxon ham yozuvchi nazarda tutgan xulosaga keladi ya‘ni, har qanday jamiyatda inson eng avvalo insoniylikni, o‘zlikni yo‘qotmasligi eng oliy maqsaddir.

Saima Vahob adabiyot maydoniga o‘zining “*In My Father’s Country. An Afghan Woman Defies Her Fate*” (Ota yurtimda. Afg‘on ayolining taqdirga qarshi kurashlari)<sup>23</sup> biografik metodga asoslangan asari bilan kirib keldi. Tahlillar natijasida asaridagi badiiy g‘oya asosida quyidagilar klassifikatsiya qilindi:

a) amerika orzusi va uyda milliylik, qadriyatlarga amal qilish va hali hamon ayollarning erkin mamlakatda erksizligi;

b) qahramonning psixologik o‘zi bilan kurashi, uyda sharqona tarbiya, ko‘chada g‘arbga xos xulq-atvor;

c) madaniyatlararo va diniy to‘qnashuv;

d) ona va qiz munosabati, ikki avlod to‘qnashuvi oqibatlari.

Asardagi “o‘zgalar fikri”, “milliylik”, “qadriyat” terminlari qahramon hayoti davomida ko‘p bora duch keladi va qaysidir ma‘noda ulardan qo‘rqadi ya‘ni qadriyat deganda 9 yoshida turmushga berib yubormoqchi bo‘lishgani, o‘zgalar fikri (oilasini undan va onasidan yuz o‘girishi) qiz farzandlar hayotida oila qurishdek masalada kuchga ega ekanligi keltirilgan.

Yana bir vakilimiz Maryam Quadrat Asil afg‘on-amerika madaniyatini biografik metod asosida yozilgan “*Torn between Two Cultures: An Afghan-American Woman Speaks out*” (“Ikki madaniyatga mansublik: Afg‘on-amerikalik ayol haqiqati”) asarida ikki madaniyatga xos o‘xshashlikni va farqlarni o‘ziga xos chizgilarda bayon etadi. Asarni tahlil qilar ekanmiz adibaning doim mustaqillikka bo‘lgan istagini oilasining umidlari bilan chambarshas uyg‘unlashtirib, quyidagilarni asardagi Maryam perspektivasini quyidagi guruhlariga ajratishni lozim topdik:

1) Kelishuv izlash;

2) Qo‘llab – quvvatlanishni umid qilish;

3) Shaxsiy chegaralarini ta‘minlash;

4) Oilada o‘zaro bir-birini tushunish.

Maryam Quadrat Asil asaridan kelib chiqadigan yagona xulosa shuki, o‘zlikni topish avvalo o‘zni tarbiyalash va ilm olish orqaligina erishiladigan jarayondir.

Nilufar Paziraning “*A Bed of Red Flowers: In Search of My Afghanistan*” (*Qizil gullar oshyoni: Afg‘onistonimni izlab*) avtobiografik uslubda yozgan asari- bu ish g‘ol ostida bo‘lgan hayotning chuqur ta‘sirchan portreti hamda oila, xalq va mamlakatning unutilmas hikoyasi tasvirlangan chuqur hissiyotga boy realistik asardir. Asar avtobiografik usulda muallif tilidan bayon qilingan hamda uning g‘oyasi sifatida umuminsoniy tamoyillar talqinini ko‘rsata bilishdir. Muallif asardagi har bir bobni epigraf bilan ya‘ni mashur afg‘on shoirlarining she‘rlari bilan

<sup>22</sup> To‘rayeva B. Adabiyot nazariyasi: o‘quv qullanma. – Toshkent: Effect-D, 2020. – B.34

<sup>23</sup> Saima Wahab. *In My Father’s Country. An Afghan Woman Defies Her Fate.* -New York: Crown Publishers, 2012. – 463 p.

boshlaydi. Bu asarni ham psixologizmning analitik prinsipi yordamida tahlil qilishga harakat qildik. Muallif asardagi qahramonlarning ichki dunyosini mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tarzi bilan uzviy aloqadiligini kitobxonga ko'rsatdi. Bu yerda psixologizmning analitik prinsipi yetakchi, chunki syujetning xronologik va o'tmishga murojaat qiluvchi omillari ustalik bilan qo'llanilgan.

Afg'on-amerika adibalari va ularning asarlari hamda multikulturalizm adabiyotiga xos xususiyatlarni tahlil qilish jarayonida, yuqorida ta'kidlangan Faruka Gavhariy, Saima Vahob, Maryam Quadrat Asil va Nilufar Paziralarning biografik romanlaridagi badiiy g'oya, mavzu va muallif niyati uchligi asosida har to'rtala ijodkor asarlarining badiiy o'ziga xosligi sifatida milliy va umuminsoniy tamoyillar yetakchilik qilishi kuzatildi

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Afg'oniston tarviri-nostalgia: qadriyatlar, oila va ta'lim rakursida”** deb nomlanib, u uch fasldan iborat. Qadriyatlar haqida gapirar ekanmiz, albatta milliy qadriyat haqida ham to'xtalishimiz lozim deb topdik. Milliy qadriyatlarning har bir ko'rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin. Milliy qadriyatlar millatning boyligini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Milliy qadriyatning ajralmas qismi sanaluvchi oilaviy qadriyat va uning turlari, shakllari zamonaviy adabiyotda keng tasvirlangan motivlar sirasiga kiradi. Biz tahlilga tortgan afg'on-amerika adabiyotida ham qadriyatlar tushunchasi keng qamrovda yoritilgan. Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan afg'on-amerika adibalaridan Faruka Gavhariy (*“Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey”*)<sup>24</sup>, Maryam Quadrat Asil (*“Torn between Two Cultures: an Afghan-American Woman Speaks out”*)<sup>25</sup>, Nilufar Pazira (*“A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan”*)<sup>26</sup> va Saima Vahob (*“In My Father's Country”*)<sup>27</sup>larning ijodi milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida adabiy-badiiy tahlil qilindi. Ushbu ijodkorlarning asarlarida qadriyatlar insoniy, milliy, oilaviy rakurslarda talqin etilib, ularda afg'on millatining o'ziga xos sifatlari, fazilatlari, donishmandligi, milliy g'urur orqali o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, millatning madaniyati, imon-e'tiqodi, milliy urf-odatlar, mehr-oqibati, milliy tarbiyaning barcha qirralari o'ziga xos qadriyatlarida namoyon bo'lgan.

To'rtala asarning asosiy mavzusi “oilaviy qadriyatlar” bo'lib, ularda bir qancha ikkinchi darajali mavzular mavjud. Adibalar “bolalik, o'smirlik va balog'at yoshi” kabi ikkinchi darajali mavzular bilan parallel “Afg'oniston tarixiy tasviri” kabi hayotiy-tarixiy mavzularga ham murojaat etadi. Barcha romanlarni umumlashtiruvchi yana bir jixat bu – erkak personajlarning oilada va jamiyatda ustunligini ifodalashdir, ya'ni adibalar musulmon jamiyatida patriarxal munosabatlarni badiiy uslub vositasida tasvirlashadi. , Maryam Asilning *“Torn between Two Cultures: an Afghan-American Woman Speaks out”* (*“Ikki madaniyatga mansublik: afg'on-amerikalik ayol haqiqati”*) asari qahramoni oilada

<sup>24</sup> Farooka Gauhari. *Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey*. – Lincoln: University of Nebraska Press, 1996. – 255p.

<sup>25</sup> Maryam Quadrat Aseel. *Torn between Two Cultures: An Afghan-American Speaks out*. –Sterling: A Capital Books, Inc, 2003. –191p.

<sup>26</sup> Nelofer Pazira. *A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan*. -New York: Free Press, 2005. – 416 p.

<sup>27</sup> Saima Wahab. *In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate*. -New York: Crown Publishers, 2012. – 463 p.

o'zi mansub milliy qadriyatlar va jamiyatda g'arb madaniyatiga asoslangan umumbashariy an'analar o'rtasidagi ziddiyatlar kesimida tasvirlanadi. Asarda oilaviy qadriyatning ahamiyati va undagi patriarxal ustunlikdir. Ota roli Maryam Asilning bolalik yillaridanoq muhim bo'lib, ota qiz farzandi uchun namuna vazifasini bajaradi.

Oilaviy qadriyatlarda erkak kishining ustuvorligi tasvirlangan yana bir asar Faruka Gavhariyning "*Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey*" ("*Salimni izlab: Afg'on ayoli Odisseyasi*") romani bo'lib, ziyoli ota va g'amxo'r turmush o'rtoq Farukaning oilaviy, kasbiy va malakaviy muvaffaqiyatga erishida haqiqiy tirgak sanaladi. Syujet real hayotiy voqealarga asoslangan bo'lgani uchun Gavhariy o'z tajribasidan kelib chiqib, patriarxal afg'on jamiyatini obyektiv tasvirlaydi. Diniy davlatda yashayotgan Farukaning eng asosiy muvaffaqiyati uning otasi tomonidan berilgan dunyoviy ilmga egaligi edi.

Faruka Gavhariy va Maryam Quadrat Asil ijodiy an'analari bilan mushtaraklik yana bir afg'on-amerika adabiyoti yozuvchisi Saima Vahobning "*In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate*" ("*Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari*") asarida ham kuzatiladi.

Oilaviy qadriyatlarda ota roli va uning farzandlar tarbiyasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan yana bir asar Nilufar Paziraning "*A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan*" ("*Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab*") romani bo'lib, bu asar ham to'liq biografik uslubda yozilgan. Asar avtobiografik usulda muallif tilidan bayon qilingan. Romandagi asosiy g'oyalar:

- mamlakat boshiga kim kelishidan qat'iy nazar ayollarning huquqlari poymol bo'layotgani;

- bosh qaxramon va uning dugonasi, ular ortidagi ikki oilaning qarama-qarshi fikrlari;

- Habibulloning vatanparvarligi, do'stining esa demokratiyaga qarshiligi;

- diniy ta'limotlarning to'g'ri-noto'g'ri talqin qilinishi.

Tadqiq qilinayotgan adibalarimiz ziyoli oila farzandlari bo'lib, ham dunyoviy va ham diniy ta'limga birdek e'tibor qaratilishi natijasida g'arb va sharq rishtalarini, qadriyatlarini bir xil muvozanatda egallay olganliklari bilan ahamiyatlidir. Masalan, Saima Vahob asarida ta'lim fidoyilari sifatida amakilari va bobosi gavdalantirilsa, Maryam Quadrat asil asarida esa qahramon vazifasi dastlab dinni o'rganayotgan talaba sifatida gavdalansa, asar davomida dinni to'g'ri talqin qilishga harakat qilayotgan din targ'ibotchisi shakllana boshlaydi. Faruka Gavhariyda turmush o'rtog'i Salimning kumagi orqali ilm olib jamiyatda o'z o'rnini topadi. Paziraning ota-onasi ziyoli bo'lib, farzandlarining ilm egallashlariga alohida e'tibor berishadi. Ta'limga bo'lgan intilish shunchalar kuchli ediki, hatto maktabga ketayotgan avtobuslarga bombalar qo'yilib, bolalar halok bo'lsa ham, beqaror siyosat hukmronlik qilsa ham, har qanday to'siqqa qaramasdan afg'on bolalari maktabga borishni, ilm olishni istashardi. Asarda maktab ta'limining kelajak uchun muhimligini ko'rsatishga intilish voqealarning Nilufar va uning maktabdoshlari bilan bog'liq syujetlar bilan boshlanishidan bilish mumkin.

Biz tadqiq etayotgan barcha adibalarimizning ota, bobo, amaki va tog'alari insonparvarlikning yuksak namunasi sifatida tilga olinarkan, ularning oilada

ayollarga imkoniyat va sharoit yaratib berganliklari e'tiborga loyiqdir. Balki shuning uchun ham to'rt nafat adibimiz bugungi kunda Amerika jamiyatida o'z o'rnini topgan va Afg'on konsepsiyasining asl mohiyatini badiiy tarzda ifodalay olishgan Afg'on muvaffaqiyatli ayollari qatorida tan olingandirlar.

Badiylik mezonlaridan biri hayot haqiqati va badiiy haqiqat. "*Haqiqat- zarur sharoit, biroq u hali asarning yutig'i emas*"<sup>28</sup>. Lekin "*hayot haqiqati badiylikka asos sifatida xizmat qiladi, badiiy tasvirning hayot haqiqatiga mos kelishi, shubhasiz badiylik mezonning talabidir*".<sup>29</sup> Badiiy haqiqat hayot va tarixiy haqiqatning badiiy qorishmasidir. Adabiyot va hayot fakti bir –biri bilan chambarchas bog'liqdir. Badiiy haqiqat hayot haqiqati emas, balki ijodkorning ijodiy mahsulidir.

Tarixiy haqiqatning adabiyotdagi vazifasi nimani belgilab beradi? Hayot haqiqati tarixiy haqiqat, tarixiy shaxs, tarixiy prozalarni o'z ichiga oladi. Bizningcha, tarixiy elementlardan foydalangan ijodkor o'quvchiga haqiqiy hayotni badiiy jilovlab ijodining naqadar realistik boyitilganini ko'rsatishdir va albatta real voqealarga asoslangan asarlar jilosi inson psixologiyasiga tez ta'sir qiladi. Tarixiy voqealar, arxivlardan o'rin olgan hujjatlar, ayrim kishilarning xotirasida saqlanib qolgan uzuq-yuluq esdaliklar, qolaversa, yozuvchining o'zi boshidan kechirgan katta-kichik voqealar, detallar, faktlar badiiy ifodada katta kuchga aylanadi. Shuni ham aytishni lozim topdikki, quyida tahlil qilmoqchi bo'lgan asarlarimiz tarixiy-inqilobiy, tarixiy-biografik deb munozara qilsak bo'ladi, chunki qahramonlarimiz ayol bo'lishiga qaramay o'sha davrdagi siyosiy tuzumga qarshi chiqadilar. Ularning asarlarida tarixiy sharoitning real tasviri asosiy o'rinni egallab, asar badiyatining belgilovchi mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Faruka Gavhariyning "*Searching for Saleem: An Afghan Woman's Odyssey*" (*Salimni izlab: Afg'on ayolining Odisseyasi*) asari Afg'onistondagi noto'g'ri yuritilgan siyosat tufayli aziyat chekayotgan tinch aholi taqdiri tasvirlanadi, aynan bosh qahramon va roviy Faruka hamda uning oilasi bilan sodir bo'lgan voqealar tarixiy faktlar asosida yozilgan. Bunday voqealar bilan qahramonning qalbidagi poklik, halollik, rostgo'ylik kabi umuminsoniy qadriyatlarga xos ko'pgina fazilatlar mavjudligini ko'rsatib, ana shu hislatlarning tadrijiy rivojini kuzatishga, Farukani ichki dunyosini teran anglashga, zamon va makon chigalliklarini ham tasavvur etishga imkon beradi.

Saima Vahob "*In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate*" ("*Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari*") asarida o'zi yashagan davr muhitini badiiy mahorat bilan tarixiy faktlarga, elementlarga asoslanib yozgan. Adabiyotshunos H. Umurov ta'kidlaganidek, ilmda istorizm prinsiplarining uchta mezoni o'rganilgan. Ulardan birinchisi asarda tarixiy faktlarni aynan ko'rsatish qat'iy shart emas, voqeaning ruhini, sababini ichki tomondan ochib berish, xarakterni ijtimoiy, siyosiy, maishiy, madaniy va ma'naviy determinizm orqali tasvir etishdir va biz tadqiqot uchun tanlagan Saima Vahobning asari aynan shu mezonga tog'ri keladi deb hisobladik. Chunki asar qahramonining asosiy maqsadlaridan biri vatanida otasi bilan bog'liq xotiralarini tiklash edi. Bu o'rinda yozuvchining individual xususiyatlarini, psixologiyasini ham nazardan qochirmaslik lozim. Voqealar rivoji yaqin o'tmishda Afg'onistonda Amerika harbiy

<sup>28</sup> Добролюбов Н. А. Полн.собр.соч.в шести томах, т.2.-Москва, 1935.- 326 с.

<sup>29</sup> Шамота. Н. З. О художественности . Москва : Сов. писатель, 1954. –300 с.



bazalari bosimi ostida yashagan mahalliy aholining taqdiri va qismati bilan tutashgan siyosiy jarayonni o'z ichiga oladi. Shuningdek, millatning iqtisodiy va ma'naviy tanazzuli bosh qahramon – tarjimon Saima Vahob perspektivasida tasvirlanadi.

Nilufar Paziraning “*A Bed of Red Flowers: In Search of My Afghanistan*” (*Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab*) ni tahlilga tortarkanmiz, bu asar qolgan uchta asardan ko'ra tarixiy faktlar ko'pligi bilan ajralib turadi. Adiba tarixiy faktlarga tayanib mamlakatning tahlikali vaziyatini, unda kechayotgan insonlar taqdiri, siyosiy jarayonlarni ob'yektiv ko'rsatishga harakat qilib, xalqi hayotidagi fojiali tomonlarni ishonarli lavhalarda ochib beradi. Asar syujeti markazida vatanni, xalqni va tinch-totuv hayotni saqlab qolmoqchi bo'lgan Nilufarning otasi va uning maslakdoshlari tasvirlangan. Yozuvchi qalamga olayotgan voqealar, real tarixiy shaxslar orqali kitobxon tasavvurida Afg'onistonning urush yillarini gavdalantirishga urinadi.

Dissertatsiyaning “**Ayol erki va uning badiiy hamda tarixiy ifodasi**” nomli uchinchi bobda realiya va terminning o'xshashligi ko'zga tashlanadi. Termin aniq predmetning nomini bildiradi va sinonimiga ega bo'lmaydi. Ammo realiyaga ham bu ta'rifni berish mumkin. Termin butun insoniyatga tegishli, realiya esa bir xalqining til va madaniyatida o'z aksini topadi. Terminlar matnga na hissiy, na mentalitet, na ma'joziylik, na stilistik va milliy rang bera olmaydi. Realiya esa yuqoridagilarning aksini bajaradi, ya'ni u matnda kelsa, aynan bir xalqning hayotiga tegishli ekanligini so'zlar tarjima qilinmasada bilish mumkin. E.M. Vereshagin va V.G. Kostomarov<sup>30</sup> rus adabiyotshunoslarining fikrlariga asoslanib, milliy madaniyat semantikasini 7 ta guruhga ajratib, klasifikasiya qildilar:

1. **Sovetizm**. Oktyabr revolyusiyasidan so'ng paydo bo'lgan so'zlar (Верховный совет, депутат);

2. **Yangi maishiy so'zlar** (madaniyat bo'gi, zachyotka, shanbalik);

3. **An'anaviy hayot obyektlari va hodisalar nomlari** (bublik, shi, valenki);

4. **Tarixiylik**. Tarixiy davrga doir so'zlar (uezd, kaftan);

5. **Fraziologik birliklar** (bit chelom, dengi na bochku);

6. **Folklorga doir so'zlar** (soat emas millar sayin, xushsur'at yigit);

7. **Kelib chiqishi rus tilidan bo'lmagan, ya'ni, turkcha, mongolcha, ukraincha so'zlar** (taiga, bozor, xalat, osh, maiz).

V.S. Vinogradov<sup>31</sup> esa lotin amerikasi badiiy adabiyoti namunalariga tayanib, realiyalarni quyidagicha guruhlaydi:

1. **Maishiy realiya** (uy, mulk, kiyim-kechak, oziq-ovqat, ichimlik, mashg'ulotlar, pul birliklari, o'lchov birlikari, musiqa asboblari, xalq raqsi va qushiqlari, xonandalar, xalq o'yinlari va bayramlari, muloqot);

2. **Etnografik va mifologik realiya** (etnik va ijtimoiy jamoalar hamda ularning vakillari, xudo, ertaknamo maxluqlar, mashxur joylar);

